



YAKKAXON XONANDALIK IJROSIDA JO‘RNAVOZ BILAN BADIY HAMKORLIKNI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY VA AMALIY ASOSLARI

1

Tojiboyev Sardor O‘ktam o‘g‘li



ABSTRACT

Mazkur maqolada yakkaxon xonandalik ijrosida jo‘rnavor bilan badiy hamkorlikni shakllantirishning nazariy va amaliy jihatlari yoritilgan. Ijro jarayonida ovoz va cholg‘u uyg‘unligi, intonatsiya, ritm, tembr, musiqiy eshituv hamda sahna madaniyatining ahamiyati ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Shuningdek, jo‘rnavor bilan muntazam mashg‘ulot olib borishning ijrochilik mahoratini rivojlantirishdagi o‘rni hamda milliy ijrochilik an‘analarini saqlash va takomillashtirish masalalari ko‘rib chiqilgan. Tadqiqot natijalari musiqa ta‘limi tizimida bo‘lajak xonandalarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.



KEYWORDS

yakkaxon xonandalik

jo‘rnavor

ijro uyg‘unligi

musiqiy eshituv

intonatsiya

ritm

tembr

sahna madaniyati

ijrochilik mahorati

milliy ijrochilik



MAQOLA MATNI

Madaniyatshunoslik va nomoddiy madaniy meros

ilmiy-tadqiqot instituti ilmiy xodimi

Аннотация. В статье рассматриваются теоретические и практические основы формирования художественного взаимодействия солиста и аккомпаниатора в вокальном исполнительстве. Проанализированы вопросы согласованности голоса и инструментального сопровождения, интонации, ритма, тембра, музыкального слуха и сценической культуры. Особое внимание уделено роли систематических репетиций с аккомпаниатором в совершенствовании исполнительского мастерства, а также сохранению и развитию национальных исполнительских традиций. Результаты исследования могут быть использованы в системе музыкального образования при подготовке профессиональных вокалистов.

Ключевые слова: сольное пение, аккомпаниатор, исполнительское взаимодействие, музыкальный слух, интонация, ритм, тембр, сценическая культура, исполнительское мастерство, национальные исполнительские традиции.

Abstract. This article examines the theoretical and practical foundations of artistic collaboration between a solo vocalist and an accompanist in vocal performance. Particular attention is paid to the coordination of voice and instrumental accompaniment, intonation, rhythm, timbre, musical hearing, and stage culture. The study also highlights the importance of systematic rehearsals with an accompanist in developing professional performance skills and preserving national vocal performance traditions. The findings may contribute to improving the professional competencies of future vocal performers within higher music education.

Keywords: solo singing, accompanist, performance collaboration, musical hearing, intonation, rhythm, timbre, stage culture, performance skills, national vocal traditions.

Qo‘shiqlar xalqning ijtimoiy hayotining hamma tomonlari bilan bog‘langan bo‘lib, ular muayyan tarixiy taraqqiyot bosqichlarini bosib o‘tgan, insoniyat tafakkuri darajasiga qarab turmushni o‘ziga xos obrazlarda badiiy jihatdan aks ettirgan noyob san’atdir. Xalqimizning eng yaxshi ko‘rgan g‘oyaviy-badiiy jihatdan yuksak an’anaviy qo‘shiqlarida xalqning turmushi, tirikchiligi, ko‘nglidagi orzu-armonlari, dard alami, shod-xurramligi va kelajakka ishonchi ifodalangan. Shuningdek, zo‘ravonlik, erkinsizlik, adolatsizlikka qarshi kurashishning qudratli ovozi eshtilib turgan. Qo‘shiqlarning muzmuni voqealikning lirik g‘oyasini badiiy o‘zlashtirib, ya’ni yuz bergan hodisa va voqealarga munosabat, his-tuyg‘u va kayfiyat orqali ifodalanadi.

O‘zbek xalq og‘zaki poetik ijodida qo‘shiqlar salmoqli o‘rin egallaydi. “Qo‘shiq” atamasi turkiy “qo‘shmoq” fe‘lining o‘zagidan yasalgan bo‘lib, misraga misrani qo‘shib kuylash, aytish ma’nolarini anglatadi va bu atama ikki ma’noda qo‘llanadi. Keng ma’noda u og‘zaki lirika turini anglatadi va bu ma’no ya’ni she’riyat, qasida, qo‘shiq ma’nolari Mahmud Qoshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asarida ham qayd etilgan. Tor ma’noda qo‘shiq atamasi og‘zaki lirik turga mansub mustaqil janrni anglatadi. Qo‘shiqning mustaqil janr atamasi esa asarda ifodalangan mazmunga, qo‘shiqning ijro o‘rni, tarzi va funksiyasiga qarab turli sifatlovchilar bilan birgalikda nomlanadi. M-n: qo‘shiq mehnat jarayonida, ishlayotganlar tomonidan ijro etilib, mazmunan